

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/28.02.2022.T.101.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

TURSUNOV BAXODIR JUNAYDULLAYEVICH

**YOG‘-MOY VA NEFT QOLDIQLARI ASOSIDA YUQORI SIFATLI
YOQILG‘I BRIKET OLISH TEXNOLOGIYASI**

02.00.11 – Kolloid va membrana kimyosi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contes of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Tursunov Baxodir Junaydullayevich

Yog‘-moy va neft qoldiqlari asosida yuqori sifatli yoqilg‘i briket olish texnologiyasi..... 3

Турсунов Баходир Жунайдуллаевич

Технология получения высококачественных топливных брикетов на основе нефтяных и масложировых остатков..... 21

Tursunov Baxodir Junaydullayevich

Technology for producing high-quality fuel briquettes based on oil and fatty residues 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/28.02.2022.T.101.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

TURSUNOV BAXODIR JUNAYDULLAYEVICH

**YOG‘-MOY VA NEFT QOLDIQLARI ASOSIDA YUQORI SIFATLI
YOQILG‘I BRIKET OLISH TEXNOLOGIYASI**

02.00.11 – Kolloid va membrana kimyosi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/T3573 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.bmti.uz) hamda «Ziyonet» Axborot – ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Adizov Bobirjon Zamirovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Buxorov Shuxrat Buriyevich
texnika fanlari doktori, professor

Sharipov Ilhom Husenovich
kimyo fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan muhandislik-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi DSc.03/28.02.2022.T.101.01 raqamli Ilmiy kengashning «31» may 2025-yil soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahar, Q. Murtazoyev ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (+99865) 223-78-84; faks: (+99865) 223-78-84, e-mail: bmti_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (352-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200117, Buxoro shahar, Q. Murtazoyev ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (+99865) 223-78-84).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «17» may kuni tarqatildi.
(2025-yil «24» martdagi № 1-raqamli reestr bayonnomasi).



S.F. Fozilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

A.T. Oltiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

X. B. Do‘stov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, kimyo fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi kunda kimyo sanoati ikkilamchi xomashyo va qoldiqlarni qayta ishlashning barcha turlari faqat bir nechta mamlakatlarda an'anaviy amaliyotga aylanib bormoqda, ammo ulardan oqilona foydalanish hamda iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va shu bilan birgalikda energiyaga bo'lgan zarurat kundan kunga ortib borishi kuzatilmoqda. Neft va yog'moy sanoati ikkilamchi xomashyo va qoldiqlari yig'iladigan joylarida kimyoviy parchalanishi natijasida atrof-muhitga zararli bo'lgan gazlar ajralib chiqadi, bu esa atmosferaga salbiy ta'sir etmoqda. Neft va yog'moy sanoati ikkilamchi xomashyo va qoldiqlaridan oqilona foydalanish maqsadida ulardan yoqilg'i briketni ishlab chiqishning ilmiy asoslarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Butun dunyoda qozonxona va issiqxonalarini yoqilg'i energiya manbai bilan ta'minlash uchun qazib olinadigan resurs manbalari va ularning qoldiqlari asosida atrof-muhitga ta'siri kam bo'lgan yoqilg'i briketlarni olish texnologiyalarini yaratish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada sanoat ikkilamchi xomashyo va qoldiqlari asosida yangi bog'lovchi mahsulotning tarkibini ishlab chiqish, adgezion va kinetik ko'rsatkichlarini takomillashtirish, yoqilg'i briketining yuqori va quyi yonish issiqligini oshirish va sinovdan o'tkazishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikada ishlab chiqarish sanoatlarida hosil bo'ladigan ikkilamchi xomashyo va qoldiqlarni qayta ishlaydigan texnologiyalarini modernizatsiya qilish, qazib olinadigan tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ular asosida import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirish, xususan raqobatbardosh briketlar ishlab chiqish hamda neft va yog'moy qoldiqlarini qayta ishlab, bog'lovchi mahsulotini olish va uni briketlar olishda foydalanish bo'yicha muayyan ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida «...mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari salohiyatini yanada rivojlantirish, tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan standartlarni joriy etish»¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada neft shلامي va gossipol qatroni qoldiqlarini birlamchi tayyorlash natijasida olingan bog'lovchi mahsulot yordamida yoqilg'i briketlarni olish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentyabrdagi PF-220-son «Energiya tejoychi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2023-yil 10-apreldagi PQ-118-son «Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish to'g'risida»gi qarori, 2023-yil 13-fevraldagi PQ-54-son «Yoqilg'i-energiya resurslaridan foydalanish sohasida davlat nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son «2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni

etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmon va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» va IV. «Atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yog'-moy va neft sanoatlarida hosil bo'ladigan ikkilamchi xomashyo va neft qoldiqlari asosida turli mahsulotlarni olish, qizilmiya ildizlaridan unumli foydalanish va tabiiy manbalarni tejash uchun muqobil manbalarni ko'paytirish bo'yicha ko'plab xorijiy olimlar, jumladan, V.A. Kurkin, M.V. Yegorov, B.B. Abjalelov, S.J. Kujamberdiyeva, A.B. Absemov, M.B. Gavrilin, S.P. Senchenko, A.M. Tamiryan, A.B. Pechenova, Ye.P. Kulagin, E.C. Rassadina, E.K. Nordshtrem, E.N. Oystrex, P.A. Rebinder va boshqalar o'z hissalarini qo'shgan. Respublikamizda kimyo sanoati ikkilamchi xomashyo va neft qoldiqlarini qayta ishlash yoki utilizatsiyalash ishlari bo'yicha G.R. Narmetova, R.A. Kulmatov, S.A. Abduraximov, M.P. Yunusov, Sh.A. Mutalov, A.A. Agzamhodjaev, X.L. Pulatov, I.D. Eshmetov, Sh.A. Kuldasheva, A.A. Alimov, F.M. Yusupov, B.N. Xamidov, S.F. Fozilov, B.Z. Adizov, R.R. Hayitovlar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Ularning tadqiqotlarida, yog'-moy va neft sanoati ikkilamchi xomashyo va qoldiqlarni qayta ishlab, yangi bog'lovchilar olish jarayonlarida qo'llash, qizilmiya ildizlaridan glitsirrizin kislotalarni, fenol birikmalarni, oqsillar ajratib olish usullari va qo'llanish sohalarini kengaytirish va texnologiyalarini takomillashtirish tavsiya etilgan.

Biroq, olib borilgan tadqiqotlarda briketning tarkibi, bog'lovchilarning xususiyatlari o'rganilishi bilan cheklangan, ularning sirt hodisalari va komponentlarning termokimyoviy xususiyatlari o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Buxoro muhandislik-texnologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2023-3120 raqamli «Ishlab chiqiladigan deemulgatorlar va kimyoviy reagentlar asosida neft tayyorlash texnologik jarayoni samaradorligini oshirish» (2023-2024 y.y.) mavzusidagi xo'jalik shartnoma doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yog'-moy va neft qoldiqlari asosida yuqori sifatli yoqilg'i briket olish texnologiyasidan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

neft shlami va gossipol qatroni hamda so'ndirilmagan ohak qo'shimchasi asosida bog'lovchi mahsulotni olish jarayonini va adgezion xossalarini o'rganish;

neft shlami va gossipol qatroni hamda ko'mir kukuni qo'shimchasi asosida bog'lovchi mahsulotni olish va reologik xossalarini o'rganish;

neft shlami, gossipol qatroni va tanlangan qo‘shimcha asosida adgezion xususiyati yuqori bo‘lgan bog‘lovchi mahsulotni olish tajriba qurilmasini ishlab chiqish;

adgezion xususiyati yuqori bo‘lgan bog‘lovchi mahsulot va ishlatilgan qizilmiya ildizi asosida yoqilg‘i briket olish retsepturasini ishlab chiqish;

ishlab chiqilgan retseptura asosida olingan yoqilg‘i briketning mexanik mustahkamlik xususiyatlarini aniqlash;

bog‘lovchi mahsulot va ishlatilgan qizilmiya ildizi asosida olingan yoqilg‘i briketning asosiy sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash;

qozonxona va issiqxonalarda ishlatilayotgan yoqilg‘i energiya manbai o‘rnini bosa oladigan muqobil yoqilg‘i energiya sifatida qo‘llash metodikasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob‘yekti sifatida Buxoro neftni qayta ishlash zavodida hosil bo‘ladigan neft shlami, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida jami 19 korxonada hosil bo‘ladigan ishlatilgan qizilmiya ildizi, “Yangiyo‘l yog‘-moy” AJ korxonasida ajralib chiqadigan gossipol qatroni, ohak ishlab chiqarish korxonasidagi so‘ndirilmagan ohak, Angren ko‘mir konida hosil bo‘ladigan ko‘mir kukuni va yoqilg‘i briket namunalari olingan.

Tadqiqotning predmetini ikkilamchi xomashyo va qoldiqlarni birlamchi termik ishlov berish natijasida adgezion xususiyati yuqori bo‘lgan bog‘lovchi mahsulotni ishlatilgan qizilmiya ildizlari bilan bog‘lash natijasida tayyorlangan sifatli yoqilg‘i briketlari olingan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada fizik, fizik-kimyoviy, kolloid-kimyoviy, mexanik, fizik-mexanik, issiqlik-texnik usullari hamda Mass-selektiv detektorli gaz xromatografiya usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ishlatilgan qizilmiya ildizlarini adgezion xususiyati yuqori bo‘lgan bog‘lovchi mahsulot bilan to‘yintirish natijasida yoqilg‘i briket olish retsepturasi ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan retseptura asosida olingan yoqilg‘i briketning mexanik mustahkamligining (yuk ostida siqilishi-24,1 MPa, tashlab olishda-90%; aylantirib olishda-92,5%) asosiy ko‘rsatkichlarini yuqori ekanligi aniqlangan;

bog‘lovchi mahsulotni olish jarayonida qo‘shimcha sifatida qo‘llanilayotgan so‘ndirilmagan ohakni o‘rniga ko‘mir kukunini qo‘llash natijasida tayyorlangan yoqilg‘i briketning yuqori va quyi yonish issiqlik ko‘rsatkichlari samarali ekanligi isbotlangan;

neft shlami, gossipol qatroni va kukunsimon (so‘ndirilmagan ohak, ko‘mir kukuni) qo‘shimchalardan foydalanib adgezion xususiyati yuqori bo‘lgan bog‘lovchi mahsulotni olish tajriba qurilmasi ishlab chiqilgan va amaliy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

neft shlami, gossipol qatroni va so‘ndirilmagan ohak asosida bog‘lovchi mahsulotni olish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

neft shlami, gossipol qatroni va ko‘mir kukuni asosida bog‘lovchi mahsulotni olish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

ishlatilgan qizilmiya ildizini quritish jarayonida asosiy parametrlari va maqbul sharoitlari aniqlangan;

adhezion xususiyati yuqori bo‘lgan bog‘lovchi mahsulot va ishlatilgan qizilmiya ildizi asosida sifatli yoqilg‘i briketni olish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

qozonxona va issiqxonalarda ishlatilayotgan yoqilg‘i energiya manbaini o‘rnini bosa oladigan muqobil yoqilg‘i energiya sifatida yoqilg‘i briketni qo‘llash imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan bog‘lovchi mahsulotning tarkibi va strukturasi o‘rganishda fizik-kimyoviy, termo-kimyoviy, mass-selektiv detektorli gaz xromatografiyasi usullaridan hamda yoqilg‘i briketning sifatini aniqlashda mexanik, fizik-mexanik, issiqlik-texnik va boshqa zamonaviy tahlil usullaridan foydalanilgan, olingan natijalar ishlab chiqarishdagi ko‘rsatkichlar bilan muvofiq kelishi bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, gossipol qatronida qatron moddasi borligi sababli bog‘lovchi mahsulotning adhezion xususiyatini oshirish, gossipol qatronidan ajraladigan zaharli gazlarni saqlash uchun neft shlamini qo‘llash hamda bog‘lovchi mahsulotini yumshash haroratini yaxshilash maqsadida kukunsimon (so‘ndirilmagan ohak va ko‘mir kukuni) qo‘shimchalardan foydalanib 2 turdagi bog‘lovchi mahsulot olish, ishlatilgan qizilmiya ildizlarini bog‘lovchi mahsulot bilan bog‘lash natijasida olingan sifatli yoqilg‘i briketning mexanik mustahkamlik ko‘rsatkichlarining yaxshilanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, adhezion xususiyati yuqori bo‘lgan bog‘lovchi mahsulotni ishlatilgan qizilmiya ildizi bilan bog‘lash natijasida mexanik mustahkamligi va issiqlik texnik ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan sifatli yoqilg‘i briket mahsulotini olish, olingan yoqilg‘i briketni qozonxona va issiqxonalarda ishlatilayotgan yoqilg‘i energiya manbasini o‘rnini bosa oladigan muqobil yoqilg‘i energiya sifatida qo‘llash imkoniyatini yaratishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yog‘-moy va neft qoldiqlari asosida yuqori sifatli yoqilg‘i briket olish texnologiyasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

neft shlami, gossipol qatroni va so‘ndirilmagan ohak asosida adhezion xususiyati yuqori bo‘lgan bog‘lovchi mahsulotni olish hamda ishlatilgan qizilmiya ildizi bilan aralashtirish natijasida yoqilg‘i briketni tayyorlash texnologiyasi «Buxoro Prosper Invest» MChJda amaliyotga joriy qilingan («O‘zbekko‘mir» AJning 2024-yil 13-fevraldagi 01-13/335-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan retseptura asosida olingan yoqilg‘i briket mahsulotni qozonxona va issiqxonalarda ishlatilayotgan yoqilg‘i energiya manbaini o‘rnini bosa oladigan muqobil yoqilg‘i energiya manbai sifatida ishlatish imkonini bergan;

neft shlami, gossipol qatroni va ko‘mir kukuni asosida olingan bog‘lovchi mahsuloti hamda ishlatilgan qizilmiya ildizi bilan aralashtirish natijasida yoqilg‘i briketni tayyorlash texnologiyasi «Angren ko‘mir koni» filialida amaliyotga joriy

qilingan («O‘zbekko‘mir» AJning 2024-yil 13-fevraldagi 01-13/335-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan retseptura va texnologiya asosida mexanik mustahkamligi yuqori va yonish issiqligi ko‘rsatkichi standart talablariga javob beradigan yoqilg‘i briket olish imkoniyatini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishining natijalari, 16 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy va 2 tasi Respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY QISMI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Yoqilg‘i briketlarni ishlab chiqarish va ularning kolloid kimyoviy xossalari tadqiqining hozirgi zamon tendensiyalari**» deb nomlangan birinchi bobida O‘zbekistondagi yoqilg‘i-energetika majmuasining tavsiflari va asosiy manbalari, ko‘mir qazib olish holati va ishlatish sohalari, qizilmiya ildizi xom ashyosining umumiy tavsifi va undan foydalanish istiqbollari, yoqilg‘i briketlarni tayyorlashda bog‘lovchining ahamiyati va adgezion xususiyatlari tadqiqi, xo‘jalik va sanoat miqyosida bog‘lovchining ahamiyati, bog‘lovchi moddalarning turlari va reologik xossalari, sanoat miqyosida qo‘llaniladigan yoqilg‘i briketlarni tayyorlashda ishlatiladigan bog‘lovchilarni olish usullari va mavjud texnologiyalari, kolloid kimyoning asosiy qonuniyatlariga tayangan holda bog‘lovchilarni tanlash asoslari tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot obyektlarning tavsifi va yoqilg‘i briketni tadqiq etish usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobida ilmiy tadqiqotni bajarishda tanlab olingan obyektlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida hosil bo‘ladigan yaroqsiz qizilmiya ildizi, Respublikamiz hududida hosil bo‘ladigan gossipol qatroni va neft shlami, qurilish sanoatida ishlatiladigan so‘ndirilmagan ohak (CaO), yoqilg‘i briketni olishda ishlatiladigan ko‘mir kukuni yoki ko‘mir changi, gossipol qatroni, neft shlami, so‘ndirilmagan ohak va ko‘mir kukuni asosida bog‘lovchi quyqa olish metodikasi, qizilmiya ildizi va bog‘lovchi quyqa asosida

yoqilg'i briketni olish metodikasi, yoqilg'i briketni sifatini aniqlash uchun tanlangan metodlar, yoqilg'i briketning suvga to'yinuvchanligini va umumiy namligini aniqlash, yoqilg'i briketlarning mexanik mustahkamligini aniqlash usullari, yoqilg'i briketlarning asosiy sifat ko'rsatkichlarini aniqlash usullari hamda yoqilg'i briketlarni yondirish orqali yuqori va quyi yonish issiqligini aniqlash usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan.


Dissretatsiyaning «**Ishlatilgan qizilmiya ildizi va bog'lovchi mahsulot asosida olingan yoqilg'i briketning asosiy sifat ko'rsatkichlarini tadqiq qilish**» deb nomlangan uchinchi bobida mahalliy xom ashyolar asosida briketlar olish bo'yicha ma'lumotlar va olingan namunaning tajriba natijalari keltirilgan.

Yoqilg'i briketlarni tayyorlash uchun yuqori adgezion xususiyatga ega bo'lgan bog'lovchi mahsulotlarni olish lozim. Bizning ishimizda bog'lovchi mahsulotni olish uchun ikkita mahalliy qoldiq yoki ikkilamchi xom ashyodan va quyushtiruvchi moddalardan foydalanildi.

Mahalliy qoldiq sifatida: birinchi - neftni qayta ishlash zavodlarida (ELTQ-elektrotuzsizlantiruvchi qurilmasida, suvni tozalash inshootlarida, issiqlik almashinuvchi jihozlarni tozalashda, kollonalardagi tarelkalarni tozalashda, neftni saqlash omborlarida) hosil bo'ladigan neft shلامي; ikkinchisi - yog'-moy sanoatida (paxta soapstoki moyli kislotalarni distillash natijasida) hosil bo'lgan qatron.

Biz tomondan bog'lovchi mahsulot retsepturasini ishlab chiqish uchun asosiy xomashyo neft shلامي va gossipol qatroni qoldiqlaridan foydalanilgan.

Ishlab chiqilgan tajriba qurilmasi yordamida neft shلامي va gossipol qatroni asosida bir jinsli mahsulot namunalari olindi (1-rasm).



1-rasm. Bog'lovchi mahsulot olish tajriba qurilmasi:

1-aralashtiruvchi reaktor; 2-reaktor qopqog'i;

3-aralashtirgich; 4-elektrotuzsizlantiruvchi.

I-so'ndirilmagan ohak; II-ko'mir kukuni;

III-yengil komponentlar

Yoqilg'i briketni tayyorlash uchun tarkibi 2 xil bo'lgan bog'lovchi mahsulot olish retsepturasi qo'llanilgan: 1-neft shلامي, gossipol qatroni va so'ndirilmagan ohak; 2-neft shلامي, gossipol qatroni va ko'mir kukunidan iborat.

Har bir bog'lovchi mahsulotning sifati yumshash haroratiga va adgezion xususiyatiga qaratilgan.

Yumshash harorati va adgezion xususiyatini tadqiq qilish uchun har bir bog'lovchi mahsulotdan 5-tadan namunalar olindi (1 va 2-jadvallar).


Birinchi bog'lovchi mahsulot namunalarining tarkibidagi moddalar miqdori

Namunalar	100% massa miqdorida tayyor bog'lovchi mahsulotni olish uchun tanlangan moddalar miqdori, % massa		
	Gossipol qatroni	Neft shلامي	So'ndirilmagan ohak
*BM-1(**SO)	40	59,5	0,5
BM-2(SO)	40	59	1
BM-3(SO)	40	58,5	1,5
BM-4(SO)	40	58	2
BM-5(SO)	40	57	3


Izoh: *BM – bog'lovchi mahsulot; **SO – so'ndirilmagan ohak.

Birinchi bog'lovchi mahsulotning har bir namunasi “Halqa va Shar” usuli yordamida yumshash harorati aniqlandi va olingan natijalarning ko'rsatkichlari 2-rasmda grafik ko'rinishda keltirildi.

BM-3(SO) namunasidan boshlab, olingan yumshash haroratining ko'rsatkichi standart talablariga muvofiqligi aniqlangan. Bog'lovchi mahsulotga 1,5% massada va undan yuqori so'ndirilmagan ohak qo'shishda ham yumshash haroratining o'zgarishi kuzatilgan.



2-rasm. Birinchi bog'lovchi mahsulot namunalarining yumshash harorati



3-rasm. Ikkinchi bog'lovchi mahsulot namunalarining yumshash harorati

Ikkinchi bog'lovchi mahsulotning har bir namunasi “Halqa va Shar” usuli yordamida yumshash harorati aniqlandi va olingan natijalarning ko'rsatkichlari 3-rasmda grafik ko'rinishda keltirildi.

Ikkinchi bog'lovchi mahsulot namunalarining tarkibidagi moddalar miqdori

Namunalar	100% massa miqdorida tayyor bog'lovchi mahsulotni olish uchun tanlangan moddalar miqdori, % massa			Adgeziyasi quruq holatda N/sm ²
	Gossipol qatroni	Neft shلامي	Ko'mir kukuni	
BM-1(*KK)	35	57,5	7,5	288
BM-2(KK)	35	57	8	314
BM-3(KK)	35	56,5	8,5	320
BM-4(KK)	35	56	9	217
BM-5(KK)	35	55	10	205

Izoh: *KK – ko'mir kukuni.


Ishlatilgan qizilmiya ildizining optimal namligini va o'lchamini aniqlash uchun biz har xil o'lchamdagi namunalar tayyorlab olingan. Quritishning samarasi nafaqat qizilmiya ildizining o'lchamiga bog'liq, balki qurituvchi qurilmani to'g'ri ishlatishdan ham iboratdir. Chunki qurituvchi qurilmani samarasiz ishlatganda ortiqcha energiyaning yoqotilishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida tayyor mahsulotning tan narxining ortib borishiga sabab bo'ladi.

Qizilmiya ildizi tarkibida namlik bo'lishi kerak, chunki har bir preslaydigan qurilma xom ashyoning namligiga qarab tanlanadi, masalan ekstruder presslovchi uskunalar uchun xomashyo tarkibidagi namlik 10% dan oshmasligi kerak, mexanik va gidravlik presslovchi uskunalar uchun esa 12% dan ortmasligi lozim.

Harorati 70°C va fraksiya o'lchami (uzunligi 10-15 mm va qalinligi 3-7 mm) bo'lgan ishlatilgan qizilmiya ildizining quritish samaradorligining eng yaxshi ko'rsatkichi 98% ni bergan.

Yoqilg'i briketni tayyorlashdan oldin BM-3(SO) va BM-3(KK) bog'lovchi mahsulotlarning adgezion xususiyatlarini aniqlash uchun tarkibidagi qatron moddalarning miqdoriga bog'liq bo'ladi.


Mass-selektiv detektorli gaz xromatografiyasi yordamida BM-3(SO) va BM-3(KK) bog'lovchi mahsulotlari tarkibida moddalarning miqdorlari 4 va 5- rasmlarda keltirilgan.



4-rasm. Mass-selektiv detektorli gaz xromatografi yordamida BM-3(SO) bog'lovchi mahsuloti tarkibidagi moddalarning piklari

Mass-selektiv detektorli gaz xromatografiyasi yordamida BM-3(SO) bog'lovchi mahsuloti tarkibida bir yoki ko'p atomli qatronli spirtlar, qatron kislotali murakkab efirlar, moyli efirlar, qatronli spirtlar, geterosiklik birikmalar borligi aniqlangan: $C_{20}H_{40}O$ -octadecane, 1-(ethenyloxy); $C_{19}H_{40}O$ -n-Nonadecanol-1; $C_{20}H_{42}O$ - 1-Eicosanol; $C_{22}H_{46}O$ - Behenic alcohol; $C_{20}H_{40}S$ - octadecane, 1,1-thiobis; $C_{20}H_{42}O$ -decane, 1,1'-oxybis; $C_{19}H_{36}O_3$ -octadecanoic acid, 2-oxo-, methyl ester; $C_{24}H_{50}O$ -n-Tetracosanol-1; $C_{22}H_{44}$ -docosene; $C_{19}H_{29}COOH$, $C_{19}H_{23}COOH$, $C_{19}H_{29}COOH$ – izomerli siklik karbon kislotalar va boshqalar.

Mass-selektiv detektorli gaz xromatografiyasi yordamida BM-3(KK) bog‘lovchi mahsuloti tarkibida bir yoki ko‘p atomli qatronli spirtlar, moyli efirlar, qatronli spirtlar, geterosiklik birikmalar borligi aniqlangan: $C_{14}H_{30}O$ - tetradecanol; $C_{16}H_{32}O$ -oxirane, tetradecyl; $C_{24}H_{50}O$ -n-tetracosanol-1; $C_{16}H_{30}O$ -cis-9-hexadecenal; $C_{18}H_{34}O$ -13-octadecenal; $C_{20}H_{42}O$ -1-eicosanol; $C_{19}H_{38}O$ -disparlure; $C_{18}H_{31}ClO$ -9,12-octadecadienoyl; $C_{14}H_{26}O_2$ -octanoic acid, cyclohexyl ester; $C_{16}H_{30}O_2$ -erythro-(cis)(1,4), (cis)(1',4')-4,4'-dihydroxybicycloocty; $C_{21}H_{34}O_2$ -5,8,11,14-eicosatetraenoic acid, methyl ester; $C_{20}H_{34}O_2$ -8,11,14-eicosatrienoic acid, (Z,Z,Z); $C_{19}H_{23}COOH$, $C_{19}H_{29}COOH$ – izomerli siklik karbon kislotalar va boshqalar.



5-rasm. Mass-selektiv detektorli gaz xromatografi yordamida BM-3(KK) bog‘lovchi mahsuloti tarkibidagi moddalarning piklari

Gaz xromatografining piklaridan ko‘rinib turibdiki, birinchi bog‘lovchi mahsulot BM-3(SO) namunasida qatron moddasiga yaqinroq bo‘lgan moddalar miqdori, ikkinchi bog‘lovchi mahsulot BM-3(KK) namunasiga nisbatan ko‘proq ekanligi isbotlandi.

Bog‘lovchi mahsulotlarning adgezion xususiyatini yanada ham chuqurroq o‘rganish uchun ular asosida tayyorlangan yoqilg‘i briketlarni mustahkamligi (yuk ostida siqish, tashlab olish va barabanda aylantirish) bo‘yicha sinov-tajribalarni o‘tkazish talab etiladi.

Ishlatilgan qizilmiya ildizini BM-3(SO) va BM-3(KK) bog‘lovchi mahsulotlar bilan to‘yintirish natijasida tayyorlangan yoqilg‘i briket namunalarning tarkibiy nisbatlari 3-jadvalda keltirildi.

3-jadval

Yoqilg‘i briket namunalarning tarkibidagi moddalar miqdori

Namunalar	Tayyor yoqilg‘i briket mahsulotini olish uchun tanlangan moddalar nisbati	
	**IQMI:BM-3(SO)	IQMI:BM-3(KK)
*YB-1	9:1	9:1
YB-2	10:1	10:1
YB-3	11:1	11:1
YB-4	12:1	12:1
YB-5	13:1	13:1
YB-6	14:1	14:1
YB-7	15:1	15:1

Izoh: *YB – yoqilg‘i briketi, **IQI- ishlatilgan qizilmiya ildizi

Har bir yoqilg‘i briket namunalari yuk ostida siqish, tashlab olish va barabanda aylantirish sinov-tajribalari orqali tadqiq qilindi.

BM-3(SO) asosida tayyorlangan, yoqilg‘i briket namunalarning yuk ostida siqishning mexanik mustahkamlik ko‘rsatkichlari 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Birinchi bog‘lovchi mahsulot BM-3(SO) asosida tayyorlangan yoqilg‘i briket namunalarni yuk ostida siqish orqali mexanik mustahkamligi

Ko‘rsatkich	YB-1	YB-2	YB-3	YB-4	YB-5	YB-6	YB-7
σ_{siq} , MPa	21,9	22,9	23,9	24,1	23,9	23,7	23,6

4-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, YB-4 yoqilg‘i briketni yuk ostida siqish orqali mexanik mustahkamligi eng yaxshi ko‘rsatkichni bergan.

BM-3(KK) asosida tayyorlangan, yoqilg‘i briket namunalarning yuk ostida siqishning mexanik mustahkamlik ko‘rsatkichlari 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval


Ikkinchi bog‘lovchi mahsulot BM-3(KK) asosida tayyorlangan yoqilg‘i briket namunalarni yuk ostida siqish orqali mexanik mustahkamligi

Ko‘rsatkich	YB-1	YB-2	YB-3	YB-4	YB-5	YB-6	YB-7
σ_{siq} , MPa	23,1	24,1	24,9	25,2	25,0	24,8	24,5


5-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, YB-4 yoqilg‘i briketni yuk ostida siqish orqali mexanik mustahkamligi eng yaxshi ko‘rsatkichni bergan.

Ikkinchi bog‘lovchi mahsulot BM-3(KK) asosida tayyorlangan yoqilg‘i briket namunalarning yuk ostida siqish ko‘rsatkichi birinchi bog‘lovchi mahsulot asosida tayyorlangan yoqilg‘i briket namunalarning yuk ostida siqish ko‘rsatkichlaridan ko‘ra yaxshi ko‘rsatkichlarini bergan.

BM-3(SO) va BM-3(KK) bog‘lovchi mahsulotlar yordamida ishlatilgan qizilmiya ildizlarini to‘yintirish natijasida tayyorlangan yoqilg‘i briket namunalarni tashlab olish natijasida olingan ko‘rsatkichlar farqini 6 va 7-rasmlarda keltirilgan diagramma orqali ko‘rish mumkin.



6-rasm. BM-3(SO) yordamida ishlatilgan qizilmiya ildizlarini to‘yintirish natijasida tayyorlangan yoqilg‘i briketlarni tashlab olish orqali mexanik mustahkamligi



7-rasm. BM-3(KK) yordamida ishlatilgan qizilmiya ildizlarini to‘yintirish natijasida tayyorlangan yoqilg‘i briketlarni tashlab olish orqali mexanik mustahkamligi

6 va 7- rasmlarni taqqoslaganda quyidagi xulosaga kelish mumkin, birinchi bog‘lovchi mahsuloti BM-3(SO) asosida tayyorlangan YB namunalarning mexanik mustahkamlik ko‘rsatkichlari ikkinchi bog‘lovchi mahsulot BM-3(KK) asosida

tayyorlangan YB namunalarning mexanik mustahkamlik ko'rsatkichlariga nisbatan yuqori ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi.


Birinchi bog'lovchi mahsulot BM-3(SO) asosida tayyorlangan YBlarning tashlab olish va barabanda aylantirish natijasida yedirilishi orqali olingan ko'rsatkichlari taqqoslaganda briketning sifatini 8-rasmda ko'rish mumkin.

Birinchi bog'lovchi mahsulot BM-3 (SO) asosida tayyorlangan yoqilg'i briketning YB-1, YB-2, YB-3 va YB-4 namunalarning mexanik mustahkamlik ko'rsatkichlari standart talablariga muvofiq. Iqtisodiy samaradorligini inobatga olgan holda yoqilg'i briketning YB-4 namunasini ishlab chiqarishga joriy etish tavsiya etildi.


Olib borilgan tadqiqotlarning natijalariga ko'ra quyidagicha xulosa qilish mumkin, YBlarni sifatini baholash maqsadida uchta asosiy usul orqali mexanik mustahkamligi aniqlandi. Ya'ni birinchi bog'lovchi mahsulot BM-3(SO) va ikkinchi bog'lovchi mahsulot BM-3 (KK) asosida tayyorlangan yoqilg'i briketlarni yuk ostida siqish, tashlab olish va barabanda aylantirganda yedirilish usullari orqali mexanik mustahkamlik ko'rsatkichlari aniqlandi.

YB namunalarning suvga to'yinganligini tadqiq qilgandan so'ng birinchi va ikkinchi BMLar asosida tayyorlangan briket namunalarning ko'rsatkichlarini 9-rasmda ko'rish mumkin.

Ikkinchi bog'lovchi mahsulot BM-3(KK) asosida tayyorlangan YB namunalarning suvga to'yinganlik ko'rsatkichlari birinchi bog'lovchi mahsulot BM-3(SO) asosida tayyorlangan YB namunalarning suvga to'yinganlik ko'rsatkichlariga nisbatan yuqori chunki, birinchi bog'lovchi mahsulot BM-3(SO) ning adgezion xususiyati ikkinchi BMning adgezion xususiyatiga nisbatan yaxshiroq. Shu uchun YB tarkibida BMning massa ulushi kamaygan sari suv yutilishi kuchayib boradi.




8-rasm. Birinchi bog'lovchi mahsulot BM-3 (SO) asosida tayyorlangan YBni tashlab olish va barabanda aylantirish orqali mexanik mustahkamlik ko'rsatkichlari




9-rasm. BM-3 (SO) va BM-3 (KK) asosida tayyorlangan yoqilg'i briket namunalarning suvga to'yinganligi

Xulosa qilishdan oldin namunalarda asosida yoqilg'i briketlarni olgandan so'ng ularni yondirib kul hosil bo'lishini aniqlash lozim. Chunki tayyor yoqilg'i briketni sanoat va xo'jalik sharoitda yondirganda kul miqdori ortib ketsa nafaqat isrofchilik balki inson salomatligiga ta'sir qilishi mumkin.

YBning kul tarkibini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar juda muhim rol o'ynaydi, chunki kulning hosil bo'lishi atrof-muhitga ta'sir qiladi. BM-3(SO) va BM-3(KK) asosida tayyorlangan yoqilg'i briketning har bir namunasi uchun harorat ortishi bilan kul hosil bo'lishini 10 va 11-rasmlarda ko'rish mumkin.



10-rasm. BM-3(SO) asosida tayyorlangan yoqilg‘i briketni yondirganda kul hosil bo‘lishi




11-rasm. BM-3(KK) asosida tayyorlangan yoqilg‘i briketni yondirganda kul hosil bo‘lishi

10-rasmdan ko‘rinib turibdiki, YB-4 yoqilg‘i briketining 500°C haroratda kul hosil bo‘lishi 1,4%, 815°C haroratda 1,8% va 825°C haroratda analitik namunadagi kul miqdori 2,1% ni tashkil qildi. Boshqa YBlari namunalarida kul tarkibi YB-4 va boshqa YBlarga qaraganda yuqori bo‘lgan.

11-rasmdan ko‘rinib turibdiki, YB-4 yoqilg‘i briketining 500°C haroratda kul hosil bo‘lishi 2,1%, 815°C haroratda 2,5% va 825°C haroratda analitik namunadagi kul miqdori 2,9% ni tashkil qildi.

Yoqilg‘i briketni yondirganda uchib chiqadigan moddalarning miqdorini aniqlash uchun GOST 6382-2001 standart talablari bo‘yicha amalga oshirildi. Yoqilg‘i briketning har bir namunasini yondirganda tarkibidan uchuvchi moddalarni ajralishi bo‘yicha ma‘lumotlarning natijalarini 12-rasmda ko‘rish mumkin.



12-rasm. BM-3(SO) va BM-3(KK) asosida tayyorlangan yoqilg‘i briket namunalarini yondirganda uchib chiqadigan moddalar miqdori

12-rasmdan ko‘rinib turibdiki, yoqilg‘i briketini yondirganda tarkibidan uchib chiqadigan moddalarning unumi bevosita ishlatiladigan bog‘lovchi mahsulotning miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. Har bir yoqilg‘i briketdagi ishlatilgan qizilmiya ildizi va bog‘lovchi mahsulotning nisbati har xil bo‘lgani va bog‘lovchi mahsulotning miqdori kamayganligi sababli birinchi bog‘lovchi mahsulot BM-3(SO) asosida tayyorlangan yoqilg‘i briket namunalari tarkibidagi uchib chiqadigan moddalarning unumi ham 13,7% dan 4,2% gacha kamaydi. Ikkinchi bog‘lovchi mahsulot BM-3(KK) asosida tayyorlangan yoqilg‘i briket namunalari tarkibidagi uchib chiqadigan moddalarning unumi ham 12,9% dan 5,4% gacha kamaydi.

Yoqilg‘i yonish mahsulotlarining harorati t kalorimetrik deb ataladi, chunki u termostatik sharoitlarga mos keladi. Yoqilg‘i yonish mahsulotlarining nazariy harorati t_0 ni hisoblashda, kalorimetrikdan farqli o‘laroq, 1600°C dan yuqori

haroratlarda sodir bo'ladigan triatomik gazlar (CO₂ va H₂O) dissotsiatsiyasining endotermik ta'sirini hisobga olish kerak.

6-jadval

Issiqlik balansi hisoblangan ma'lumotlari

Yonish issiqligi	Issiqlik sarfi
Yoqilg'ining to'liq yonish issiqligi $q^T = Q_H^P = 25027,01 \text{ kDj}$	Yonuvchi mahsulotining yakuniy solishtirma issiqligi $q_{H.C} = i_{N_2} \cdot G_{H.C} = 3605 \cdot 3,15 = 11355 \text{ kDj}$
Yoqilg'i briketining dastlabki solishtirma issiqligi $q^{briket} = c_{briket} \cdot m \cdot t = 5,4 \cdot 1 \cdot 30^0 = 164 \text{ kDj}$	Jismoniy namlikning bug'lanish issiqligi $q_{H_2O} = r \cdot m = 2430 \cdot 0,24 = 583,2 \text{ kDj}$
Havoning dastlabki solishtirma issiqligi $q^B = c_B \cdot m \cdot t = 1 \cdot 3,3 \cdot 30^0 = 99 \text{ kDj}$	Kul va shlakning yakuniy solishtirma issiqligi $q_3 = c_3 \cdot m \cdot \Delta t = 4,16 \cdot 0,04 \cdot 1726^0 = 287,2 \text{ kDj}$
$\sum = 25290,01 \text{ kDj}$ yoki 25,29 MDj	$\sum = 12225,4 \text{ kDj}$ yoki 12,22 MDj

Shunday qilib, ilk marotaba qizilmiya ildizlaridan olingan YBni va bog'lovchi mahsulotni yoqish jarayonida issiqlik balansi bo'yicha nazariy hisoblangan ma'lumotlar olindi. Aniqlanishicha, QIdan olingan 1kg yoqilg'i briketi va bog'lovchi mahsulotidan (qizilmiya ildizining miqdori 92%) – 25027,01 kDj (5981,6 kkal/kg) issiqlik energiyasi ajralib chiqadi va havo sarfi chiqishi kuzatilgan. Qllaridan va bog'lovchi mahsulotdan olingan 1 kg YBni yoqishda - 3,15 m³ gaz va suv bug'lari aralashmasi ajralib chiqadi. Real sharoitlarda yonadigan mahsulotlarining harorati 1726⁰C ni bergan. Biz tomondan olib borilgan hisob-kitoblardan kelib chiqib, 1 kg QI va bog'lovchi mahsulotdan tayyorlangan YB yondirilganda ajralib chiqadigan issiqlik energiyasi 1 kg quruq QIning yonishidan 2 barobar ko'p bo'ladi. Bundan tashqari, QI va bog'lovchi mahsulotidan tayyorlangan YBni yoqish mobaynida gaz chiqishi quruq QIning yoqishdan 2 baravar ko'p bo'ladi. Qllaridan va ko'mirdan tayyorlangan YBlardan ko'ra BM-3(KK) asosida tayyorlangan yoqilg'i briketni yoqishdan iqtisodiy samara berishi va energiyani tejashini isbotlaydi.

Yoqilg'i briketni yoqishda sarflanadigan energiya manbalarining moddiy balansini tuzish uchun massani saqlash qonunidan foydalanish talab etiladi. Xususan, fizik-kimyoviy o'zaro ta'sirga kiruvchi boshlang'ich moddalarning massasi jarayon davomida olingan yakuniy moddalar massasiga, shu jumladan moddiy yo'qotishlarga teng bo'lishi kerak.

7-jadval

Hisoblangan material balansi ma'lumotlari


Massa unumi	Massa sarfi
Qizilmiya ildizlaridan va bog'lovchi mahsulotdan olingan yoqilg'i briketlarining og'irligi $G_T^{kr} = 1kg$ bo'lganda	Yonadigan mahsulotning chiqish massasi $G_{H.C}^{\square} = 3,67kg$
Yoqilg'i briket yoqilganda havo sarfi $G_B^{kr} = 2,95kg$	Yoqilg'i kulining chiqishi $G_{zol}^{ch} = 0,046kg$
$\sum = 3,95kg$	$\sum = 3,72kg$

Shunday qilib, ishlatilgan qizilmiya ildizi va bog‘lovchi mahsuloti asosida olingan 1 kg YBning yonishning moddiy balansi quyidagicha qabul qilindi: havo sarfi 2,55 m³ yoki 2,95 kg, yonuvchi massaning umumiy miqdori 3,95 kg ni tashkil qiladi. Hisoblangan ma‘lumotlarga ko‘ra, agar RO₂, N₂ va H₂O dan iborat bo‘lgan yonuvchan massa aralashmasini yoqish paytida kiritilgan dastlabki mahsulotning qiymati 3,95 kg ni tashkil etgan, yonish jarayonida esa 3,67 kg ni tashkil qilgan, kul qoldig‘i esa 0,046 kg bo‘lgan. YB yonish mahsulotlarining umumiy massasi 3,72 kg ga to‘g‘ri kelishi aniqlandi, dastlabki bosqich va uning yonishi o‘rtasidagi yonuvchan massa miqdoridagi farq 0,23 kg ni tashkil qiladi va bu farq tarkibida mavjud bo‘lgan uchuvchi moddalar massasiga to‘g‘ri keladi.

Dissertatsiyaning «**Adgezion xususiyati yuqori bo‘lgan bog‘lovchi mahsulot va ishlatilgan qizilmiya ildizi asosida tayyorlangan sifatli yoqilg‘i briketini amaliyotga joriy etilishi va iqtisodiy samaradorligi**» nomli to‘rtinchi bobida ishlatilgan qizilmiya ildizi va bog‘lovchi mahsulot asosida tayyorlangan yoqilg‘i briketlarni ishlab chiqarish hamda ularni qo‘llashdan olinadigan iqtisodiy samaradorliklar aniqlangan.

Eksperimental tajriba qurilmasi yordamida 2 xil bog‘lovchi mahsulotlar retsepturasi tanlanib va uni ishlatilgan qizilmiya ildizlari bilan aralashtirib tayyor yoqilg‘i briket mahsulotini olish texnologiyasi orqali: ishlatilgan qizilmiya ildizi – 12 va bog‘lovchi mahsulot – 1 nisbatda briket mahsulotlari olingan (13-rasm).

BM-3(SO) bog‘lovchi mahsuloti va ishlatilgan qizilmiya ildizi asosida tayyorlangan yoqilg‘i briket namunalari GOST 21289-2018 talablariga javob beradigan mexanik mustahkamligini aniqlash bo‘yicha sinov-tajriba ishlari olib borildi va YB-4 yoqilg‘i briket namunasi tanlab olindi.



13-rasm. Yoqilg‘i briketni ishlab chiqarish texnologiyasi: 1, 4-shnekli transporterlar; 2-issiqlik beruvchi blok; 3-ABM markali barabanli quritgich; 5-fraksiyalarga maydalovchi jihoz; 6-xomashyo berish liniyasi; 7-forsunka saqlagan siklon; 8-BMni yetkazib beruvchi nasos; 9-skrebkali transporter; 10-presslovchi bunker

BM-3(SO) bog‘lovchi mahsulot va ishlatilgan qizilmiya ildizi asosida tayyorlangan yoqilg‘i briket namunalari GOST 147-2013 (ISO 1928:2009) talablariga javob beradigan yuqori issiqlik yonishini aniqlash usuli, kalorimetrik uskunada doimiy hajmda va 25°C standart haroratda kalorimetrik bomba va doimiy bosimda past haroratda yonish qiymatni hisoblash usuli yordamida

aniqlandi va YB-4 va YB-5 yoqilg'i briket namunalari boshqa namunalarning ko'rsatkichlarga nisbatan standart muvofiq ko'rsatkichlarni berdi.

“O‘zbekko‘mir” AJ korxonasi sanoat-sinovlarida Ts 05767930-236:2013 (FNQIZ) talablariga javob beradigan yoqilg'i briket ko'rsatkich natijalari 8-jadvalda keltirildi.

8-jadval

Ishlatilgan qizilmiya ildizi va bog'lovchi mahsulot asosida tayyorlangan yoqilg'i briketning tahlil natijasi

YB namunasi (IQMI:BM)	Yonish issiqligi, 4000 kkal/kg dan yuqori, Ts 05767930-236:2013 (FNQIZ) norma bo'yicha	Umumiy namlikning massa ulushi, 10% dan kam, Ts 05767930-236:2013 (FNQIZ) norma bo'yicha	Kul miqdori, 20% dan kam, Ts 05767930-236:2013 (FNQIZ) norma bo'yicha	Oltinugurtning massa ulushi, 3,5% dan kam, Ts 05767930-236:2013 (FNQIZ) meyor bo'yicha	Izoh
12:1	5981,6	4,7	2,1	0,16	Kalorimetrda 1 gramm namuna to'liq yongan

Izoh: YB- yoqilg'i briketi; IQMI- ishlatilgan qizilmiya ildizi; BM- bog'lovchi mahsulot.

Qozonxona va issiqxonalarda qo'llanilayotgan yoqilg'i energiya manbasini o'rnini bosa oladigan muqobil yoqilg'i energiya manbasi sifatida ishlatish va amaliyotga joriy etilishi “O‘zbekko‘mir” AJni 2025-2030 yillardagi istiqbolli rejalariga kiritish tavsiya berildi.

Bugungi kunda muqobil energiyadan oqilona foydalanish uchun bir qancha ishlar olib borilmoqda va biz tomondan taklif etilayotgan import o'rnini bosa oladigan yoqilg'i briketi olindi va ishlab chiqarishga joriy etildi.

2023 yildagi narxlar bo'yicha yoqilg'i briketini ishlab chiqarish uchun ishlatilgan materiallarning hisob-kitob kalkulyatsiyasi 9-jadvalda keltirilgan.

9-jadval

Narxlar bo'yicha moddalarning hisob-kitob kalkulyatsiyasi

Ishlatilgan moddalar nomi	Miqdori, t	Narxi, so'm/t	Narxi (QQS ni hisobga olgan holda), so'm/t
1 tonna yoqilg'i briketni tayyorlash uchun			
Gossipol qatroni	0,04	1 800 000	72 000
Neft shlami	0,06	100 000	6 000
So'ndirilmagan ohak	0,015	100 000	1500
Ishlatilgan qizilmiya ildizi	0,920	100 000	92 000
Jami:			171 500
Ish haqi:			18 500
Boshqa xarajatlar:			65 000
Hammasi:			255 000

9-jadvalda keltirilgan hisob-kitoblarga tayangan holda, yoqilg'i briketni tayyorlash uchun yillik iqtisodiy samaradorligini aniqlash mumkin.

Hozirgi kunda birjadan 1 tonna miqdorda sotib olinayotgan ko'mirning narxi 400 000 (to'rt yuz ming) so'mni tashkil etadi.

Birinchi bog'lovchi mahsulot va ishlatilgan qizilmiya ildizi chiqindisi asosida ishlab chiqarilgan 1 tonna yoqilg'i briketning narxi 255 000 (ikki yuz ellik besh ming) so'mni tashkil etgani hisobiga yillik iqtisodiy samaradorlik quyidagicha hisoblanadi: birjadagi ko'mir narxiga nisbatan mahalliy yangi tarkibli yoqilg'i briket: $400\ 000 - 255\ 000 = 145\ 000$ (bir yuz qirq besh ming) so'mga arzonligini ko'rsatmoqda; agar uskunaning ishlab chiqarish quvvati yiliga 14500 tonna bo'lsa, shunda bir yillik iqtisodiy samaradorlik $145000 \times 14500 = 2\ 102\ 500\ 000$ (ikki milliard bir yuz ikki million besh yuz ming) so'mni tashkil etadi.

XULOSA

1. Adgezion xususiyati yuqori bo'lgan bog'lovchi mahsulot olish uchun yog'-moy sanoati qoldig'i "gossipol qatroni", neftni qayta ishlash zavodi ikkilamchi xom ashyosi "neft shlami" ning 35:57,5% nisbatdagi kompozitsiyasiga 7,5% miqdorda "ko'mir kukuni" qo'shish bilan adgeziyasi 320ga teng bo'lgan, yoki 1,5% so'ndirilmagan ohakni qo'shish bilan g'ovakligi bir xil taqsimlangan, mexanik mustahkam briket ishlab chiqarish uchun tarkib tavsiya etildi.

2. Ishlab chiqilgan tajriba qurilmasi yordamida birinchi bog'lovchi mahsulot BM-3(SO) namunasining tarkibida gossipol qatroni – 40% massa, neft shlami – 58,5% massa va so'ndirilmagan ohak – 1,5% massa bo'lganda yumshash harorati ko'rsatkichi 75°C dan yuqori, bog'lovchi mahsulot BM-3(KK) namunasining tarkibida gossipol qatroni – 35% massa, neft shlami – 56,5% massa va ko'mir kukuni – 8,5% massa bo'lganda yumshash harorati ko'rsatkichi 85°C dan yuqori ekanligi aniqlandi.

3. Birinchi bog'lovchi mahsulot BM-3(SO) va ishlatilgan qizilmiya ildizi asosida tayyorlangan YB-4 yoqilg'i briket namunasining mexanik mustahkamligini aniqlashda yuk ostida siqish ko'rsatkichi 24,1 MPa ni, tashlab olish orqali ko'rsatkichi 90% ni, barabanda aylantirish natijasida yedirilish ko'rsatkichi 92% ni berganligi isbotlandi va bu gossipolning ohak bilan yuqori adgezion massa hosil qilishi tufayli kelib chiqqanligi aniqlandi.

4. Birinchi bog'lovchi mahsulot BM-3(SO) va ishlatilgan qizilmiya ildizi asosida tayyorlangan YB-4 yoqilg'i briket namunasining asosiy sifat ko'rsatkichlari bo'yicha tadqiq qilishda briketni 500°C haroratda yondirganda analitik namunadagi kul miqdori 1,4%, 815°C haroratda 1,8% va 825°C haroratda 2,1% ni tashkil qildi.

5. YB-4 va YB-5 yoqilg'i briketlar qozonxona va issiqxonalarda ishlatilayotgan yoqilg'i energiya manbaini o'rnini bosa oladigan muqobil yoqilg'i energiya manbai sifatida ishlatish tavsiya berildi hamda taklif etilayotgan texnologiyani qo'llagan holda 2,1 mlrd so'm iqtisodiy samadorlikka erishilishi mumkinligi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/28.02.2022.Т.101.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ ИНЖЕНЕРНО-
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

БУХАРСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

ТУРСУНОВ БАХОДИР ЖУНАЙДУЛЛАЕВИЧ

**ТЕХНОЛОГИЯ ПОЛУЧЕНИЯ ВЫСОКОКАЧЕСТВЕННЫХ
ТОПЛИВНЫХ БРИКЕТОВ НА ОСНОВЕ МАСЛОЖИРОВЫХ И
НЕФТЯНЫХ ОСТАТКОВ**

02.00.11 – Коллоидная и мембранная химия

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Бухара – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.2.PhD/T3573.

Диссертация выполнена в Бухарском инженерно-технологическом институте.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (www.bmti.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	Адизов Бобиржон Замирович доктор технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Бухоров Шухрат Буриевич доктор технических наук, профессор Шарипов Илхом Хусенович кандидат химических наук, доцент
Ведущая организация:	Наманганский инженерно-технологический институт

Защита диссертации состоится «31» мая 2025 года в 11⁰⁰ часов на заседании научного совета DSc.03/28.02.2022.T.101.01 06 по присуждению учёных степеней при Бухарском инженерно-технологическом институте (Адрес: 200117, г. Бухара, ул. К. Муртазоева, 15. Тел.: (+99865)223-78-84, факс: (+99865)223-78-84, e-mail: bmti_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского инженерно-технологического института (зарегистрирован под номером №352). (Адрес: 200117, г. Бухара, ул. К. Муртазоева, 15. Тел.: (+99865) 223-78-84).

Автореферат диссертации разослан «17» мая 2025 г.
(протокол рассылки № 1 от «24» марта 2025 г.).



С.Ф. Фозилов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней доктор технических наук, профессор

А.Т. Олтиев
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор технических наук, доцент

Х. Б. Дустов
Председатель Научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, доктор химических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время все виды переработки вторичного сырья и отходов химической промышленности становятся традиционной практикой лишь в немногих странах, однако потребность в их рациональном использовании и экономическом, социальном, экологическом и, одновременно, энергетическом возрастает с каждым днем. Химическое разложение на объектах сбора вторичного сырья и отходов масложировой промышленности приводит к выделению вредных для окружающей среды газов, что отрицательно влияет на атмосферу. Для рационального использования вторичного сырья и отходов масложировой промышленности важно изучить научные основы создания из них топливных брикетов.

Во всем мире ведутся научные исследования по созданию технологий получения топливных брикетов с минимальным воздействием на окружающую среду на основе добываемых ресурсов и их остатков для обеспечения котельных и теплиц источниками топливной энергии. В связи с этим особое внимание уделяется разработке состава нового связующего продукта на основе промышленного вторичного сырья и отходов, совершенствованию адгезионных и кинетических показателей, повышению высшей и низшей теплоты сгорания топливных брикетов и их испытанию.

В Республике достигаются определенные научные и практические результаты в сфере модернизации технологий переработки вторичного сырья и отходов, образующихся в производственных отраслях; рациональное использование добываемых природных ресурсов; развитие технологий производства импортозамещающей продукции на их основе; в частности, разработка конкурентоспособных брикетов, переработка нефтяных и масложировых остатков для получения связующих веществ и их использование при производстве брикетов. В Стратегии развития нового Узбекистана определены важные задачи как «...дальнейшее развитие потенциала местных промышленных секторов при максимальном использовании существующих возможностей, внедрение стандартов, соответствующих зарубежному рынку и международным требованиям»¹. В связи с этим важным является получение топливных брикетов с использованием связующего продукта, полученного в результате первичной подготовки нефтяных шламов и остатков госсиполовой смолы.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-220 от 9-сентября 2022-года «О дополнительных мерах по внедрению энергосберегающих технологий и развитию возобновляемых источников энергии малой мощности», Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-118 от 10-апреля 2023-года «О модернизации систем отопления объектов социальной сферы на основе государственно-частного

¹ Указ Президента Республики Узбекистана УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28-января 2022-года

партнерства», № ПП-54 от 13-февраля 2023-года «О мерах по повышению эффективности государственного контроля в сфере использования топливно-энергетических ресурсов», № ПП-57 от 16-февраля 2023-года «О мерах по ускорению внедрения возобновляемых источников энергии и энергосберегающих технологий в 2023-году», а также других нормативно-правовых актах, связанных с данной деятельностью.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данная исследовательская работа выполнена в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики VII. «Химические технологии и нанотехнологии» и IV. «Охрана окружающей среды и рациональное использование природных ресурсов».

